

## EXCELDA FORMULALARNI HISOBBLASH VA BAJARISH

**Saidova Nasibaxon Ibragimovna**

*Andijon viloyati Izboskan tuman 2-sон kasb-hunar maktabi*

*Informatika fani o'qituvchisi.*

**Annontatsiya:** Formula — bu mavjud qiymatlar asosida yangi qiymatlarni hisoblovchi tenglamadir. Formulalar yordamida elektron jadvalda ko`pgina foydali ishlarni amalga oshirish mumkin. Elektron jadvallar formulalarsiz oddiy matn muxarririga aylanib qoladi. Formulalarsiz elektron jadvallarni tasavvur qilish qiyin.

**Kalit so'zlar:** Formulalar, EXCEL, aylanib, tasavvur, matnlar, yacheyka, arifmetik amallar, operatorlar, sonlar va matnlar, ishchi jadval funksiyalari.

### KIRISH

Jadvalga formulani qo`yish uchun uni kerakli yacheykaga kiritish kerak. Formulalarni ham boshqa ma`lumotlar singari o`zgartirish, saralash, ulardan nusxa ko`chirish va o`chirish mumkin. Formuladagi arifmetik amallar sonli qiymatlarni hisoblashda, maxsus funksiyalar matnlarni qayta ishslashda hamda yacheykadagi boshqa qiymatlarni hisoblashda ishlatalidi.

### MUHOKAMA

*Sonlar va matnlar.* Formuladagi hisoblashlarda qatnashayotgan sonlar va matnlar boshqa yacheykalarda joylashgan bo`lishi mumkin bo`lsa-da, ularning ma`lumotlarini oson almashtirish mumkin. Masalan, EXCEL boshlang`ich ma`lumotlar o`zgartirilsa, formulalarni qayta hisoblab chiqadi.

Formula quyidagi elementlardan ixtiyorisi o`z ichiga olishi mumkin.

— *Operatorlar.* Bittadan oshiq operatordan tuzilgan formulani tuzishda EXCEL bu operatorlarni taxlil qiladi. Bunda standart matematik qoidalarga asoslanadi. (Arifmetik amallarni bajarish tartibi saqlanib qoladi.)

Excelda formulalarni hisoblash va bajarish quyidagi tartib asosida amalga oshiriladi:

Birinchi bo`lib qavs ichidagi ifodalar qarab chiqiladi.

Undan keyin amallar bajarish tartibi saqlangan holda operatorlar bajariladi.

Agar formulalarda bir hil tartibli bir necha operatorlar bo`lsa, ular ketma-ket chapdan o`ngga qarab bajariladi.

— Diapazon va yacheykalarga yuborish — kerakli ma`lumotlarni saqlovchi diapazon va yacheykalar nomi yoki manzili ko`rsatiladi. Masalan: D10 yoki A1:E8.

— Sonlar.

— *Ishchi jadval funksiyalari.* Masalan, SUM.

Agar formula yacheykaga kiritilsa, unda yacheykada kiritilgan formula asosidagi hisob-kitob natijasi ko`rinadi. Lekin formulaning o`zi tegishli yacheyka faollashtirilsa formulalar qatorida paydo bo`ladi.

Formulalar xar doim «q» belgisi bilan boshlanadi. Ushbu belgi yordamida yeXCEL matn va formulalarni farqlaydi.

YAcheykaga formulalarni kiritishning ikkita usuli mavjud:

1. *Formulani klaviatura orqali kiritish*: «+» belgisini quyib, keyin formulalar kiritiladi. Kiritish paytida belgilar formulalar qatorida xamda faollashgan yachevkada paydo bo`ladi. Formulalarni kiritishda odatdagi taxrirlash tugmalaridan foydalanish mumkin.

2. *Yachevkalar manzilini ko`rsatish yuli bilan formulalar kiritish*: Bu usulda ham formulalar klaviaturadan kiritish orqali, lekin kamroq foydalangan holda amalga oshiriladi. Ushbu usulda yachevkalar manzilini kiritish o`rniga ular ko`rsatiladi, xolos. Masalan, A3 yachevkaga =A1+A2 formulasini kiritish uchun quyidagilarni bajarish kerak.

- **jadval kursori A3 yachevkaga utkaziladi;**

- «=> belgisi kiritiladi. Formulalar qatori yonida «kiritish» (**ввод**) yozuvi paydo bo`ladi;

- sichqoncha ko`rsatkichi A1 yachevkaga olib boriladi va chap tugmachasi bosiladi. Natijada yachevka ajratib ko`rsatiladi, ya`ni uning atrofida xarakatlanuvchi ramka (rom) paydo bo`ladi. A3 yachevkasi formulalar qatorida — A1 yachevka manzili ko`rinadi. Holat qatorida esa «**Укажите**» (Ko`rsating) yozuvi paydo bo`ladi:

- «+» belgisi kiritiladi. Natijada xarakatlanuvchi rom yukolib, yana «**Ввод**» (Kiritish) so`zi chiqadi;

- **sichqoncha ko`rsatkichi A2 yachevkaga utkaziladi** va tugmachasi bosiladi. Formulaga A2 yachevka kushiladi; · **ENTER** tugmasini bosish bilan formulani kiritish yakunlanadi.

Yachevka manzilini ko`rsatish usuli klaviatura yordamida kiritish usulidan oson va tez bajariladi.

## XULOSA

Formulalarni boshqa ishchi jadvallar yachevkalariga ham yuborish mumkin, boshqacha aytganda, formulalar bir necha joyda takrorlanishi mumkin. Xattoki, boshqa ishchi kitobdagagi ishchi jadvallarda xam. Buning uchun Excelda maxsus yozuv ishlataladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “fan darsliklari”
2. “ijtimoiy tarmoq”
3. “Kompyuter grafikasi” 2020
4. “klipmeyker olim” 2018
5. “poligrafiya ishlari” 2008